

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2022  
3-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



*Ma'nnaviy-ma'rify, ilmiy-uslubiy jurnal.  
1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:  
**Sh.U.Yakubov**

Oliy ta'limi rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tafbiq etish markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinnbosari:  
**M.X.Esanov**

Bosh muharrir:  
**A.T.Eshmurodov**

Bosh muharrir o'rinnbosari:  
**A.A.Sabriev**

Tahrir hay'ati a'zolari:  
L.R.Zaripov  
M.Tajiyev  
Sh.A.Rasulov  
G.K.Baxodirova  
S.Q.Maxsumova  
S.S.Samandarov  
O.N.Toshpulatov  
S.S.G'oziyev  
Sh.Sh.Sabirova

Jamoatchilik kengashi a'zolari:  
**Q.X.Abduraxmanov**

Sh.T.Qudratxo'ja  
G.Sh.Rixsiyeva  
Sh.S.Sirojiddinov  
R.I.Xolmurodov  
A.I.Toshpulatov  
N.M.Jabborov  
M.A.Raxmatullaev  
T.Z.Teshabayev  
M.Q.Sultonov

Dizaynerlar:  
**M.Yo'ldashev**  
**Sh.B.Sobirov**

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIIYA

## Mirzoxid Alimov.

Talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirishning innovatsion metodik asoslari ..... 4

## Nafisa Taymurodova.

Yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning tarixiy taraqqiyoti asoslari ..... 8

## Erkin Bozorov, Jasur Ashurov.

Tibbiyot oliygochlari talabalari uchun "Qaytar aloqa" usulidan foydalanib "Rentgen diagnostikasi" mavzusida dars-ma'ruza o'tkazish ..... 11

## Антонина Кошелева.

Подготовка специалистов в сфере искусства кино Узбекистана ..... 15

## Malohat Ergasheva.

TIMSS dasturi topshiriqlari asosida fundamental savodxonlikni shakllantirish ..... 17

## Шахноза Маматкулова, Гавхар Маматкулова, Венера Камбурова.

Прямое воздействие генетически модифицированных растений на окружающую среду ..... 21

## Тўлқин Маматалиев.

Масофавий таълим тушунчаси, зарурати ва аҳамияти ..... 24

## Shakhnoza Mamatkulova, Venera Kamburova.

Risk assessment of potential allergenicity of transgenic GMO ..... 29

## Азиза Турсунова.

Умумтаълим мактабларда "информатика ва ахборот технологиялари" фанини ўқитишнинг мазмуни ва ўзига хос жиҳатлари ..... 31

## Mexriddin Axmadjonov.

Oliy ta'lif muassalarida "Qayta aloqa" usulidan foydalanib "Tibbiyotda rentgen nurlarining qo'llanilishi" mavzusidagi dars mashg'ulotini o'tkazish ..... 33

## Зулфия Позилжонова.

Талабаларга маданиятлараро мулоқотни ўргатиш орқали уларнинг коммуникатив компетенциясини ривожлантириш модели ..... 37

## Нодира Рахматова, Азадаҳан Имамходжаева, Владислав Узбеков, Шахноза Кадирова, Забардаст Буриев, Иброҳим Абдураҳмонов.

Определение толерантности биотехнологических линии хлопчатника в условиях засоления и ограниченного полива на примере салициловой кислоты и пролина ..... 40

## Зайниддин Арзиқулов.

Физика фанига доир электрон таълимий ресурслар яратиш ("Оптика" бўлими мисолида) ..... 44

**Muassislar:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi,  
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va  
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

**Manzil:** 100095, Toshkent shahri, Olmazor  
tumani, Shifo nur ko'chasi, 75-uy  
**Telefon:** (71) 207-03-41  
**e-mail:** rmxat@edu.uz

**Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot  
agentligidan 2014 yil 26 dekabrda 0506  
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.**

*Jurnal har oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida  
elektron shaklda chop etiladi.*

"Ta'lim, fan va innovatsiya"  
jurnali O'zbekiston Respublikasi  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2015 yil 18 noyabrdagi  
218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 –  
PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha,  
2018 yil 28 noyabrdagi 247/6-sonli  
qarori bilan 23.00.00 – SIYOSIY  
FANLAR bo'yicha doktorlik  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan  
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ta'lim, fan va innovatsiya"  
jurnalidan ko'chirib bosish faqat  
tahririyatning roziligi bilan amalga  
oshiriladi. Maqolada keltirilgan  
faktlarning to'g'riligi uchun muallif  
mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar  
fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to'liq matnnini esijournal.uz rasmiy  
saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlarningizni  
@esijournalbot telegram botiga yuboring.*

**Нозима Каримова.**  
Профессионал таълимда педагогнинг касбий-педагогик компетентлиги ..... 47

**Шахноз Самиева.**  
Педагогик менежментга методологик ёндашувлар ва уни такомиллашти-  
ришнинг муҳим йўналишлари ..... 51

**Нилуфар Хушвакова, Зилола Наимова, Саодат Махмудова.**  
Характеристики пациентов с внезапной сенсоневральной туюухостью:  
наблюдательное исследование ..... 55

**Гули Мухамедова.**  
Мустақил ишлаш кўнижмасини ривожлантиришда креатив ўқитиш ме-  
тодлардан фойдаланиш ..... 61

**Дилафруз Раджапова.**  
Инновацион ёндашув асосида бўлажак мұхандисларнинг касбий компе-  
тентлигини ривожлантириш модели ..... 63

**Nodira Maripova.**  
Innovatsion muhitda bo'lajak tarbiyachilarni eksperimental faoliyatga  
tayyorlash ..... 65

**Мукаррам Отамуродова.**  
Жаҳон медиаландшафтида матбуот эркинлиги: замонавий мезонлар ва  
парадигмалар ..... 68

**Сохиба Нўймонова.**  
Курилиш материаллари ва буюмларини ўқитиш жараёнида талабалар-  
нинг амалий билимларини кластерли ёндашув асосида ривожлантириш  
методикаси ..... 72

**Зухра Жуманазарова.**  
Мұхандислик графикаси" фанининг педагогик технологиялари ..... 75

**Нозима Куватова.**  
Умумкасбий фанларнинг дидактик таъминотини лойиҳалаштириш та-  
мойиллари ..... 77

**Baxtiyor Raxmanov, Azada Imamxodjayeva, Xurshida Ubaydullayev,  
Dilshod Usmonov, Muxammadjon Mirzaxmedov, Shuxrat Shermatov,  
Zabardast Buriyev, Ibrohim Abdurahmonov.**  
Noyob artemizinin moddasining tibbiyotda ahamiyati ..... 79

**Раҳматулло Мамажанов, Алишер Ахмедов.**  
Использование цифровых технологий на уроках начальной математики  
..... 83

**Назокат Бозорова.**  
Тарих фанини ўқитишида маҳаллий материаллардан фойдаланиш таъ-  
лимда шахсга йўналтирилган ёндашувни амалга ошириш воситаси си-  
фатида ..... 86

<b>Жасур Рассоқов.</b>	
“Термодинамика” мавзусини ўрганиш жараёнида ўқувчиларда когнитив қизиқиши ривожлантириш .....	90
<b>Сайёра Тўраева.</b>	
Ўқитувчининг мослашувчанлик компетентлигини ривожлантиришда касбий ниятнинг айрим педагогик-психологик хослиги .....	93
<b>Feruza Mardonova.</b>	
“Atom va yadro tuzilishi” mavzusini mustahkamlashda “akvarium” metodining qo‘llanilishi .....	96
<b>Mahbuba Mamajanova.</b>	
Methodology for the formation of professional competence of students on the basis of innovative motivation .....	99
<b>Гулбахор Жўраева.</b>	
Таълим кластери шароитида талабаларнинг ижодий қобилиятини шакллантириш .....	102
<b>Шохиста Низомова.</b>	
Муҳаммад Юсуф шеърларида инсон ҳис-туйғуларининг сув ва олов тимсолларида берилиши .....	106
<b>Фазлиддин Инамов, Ибодуллохон Солиев.</b>	
Наманган вилояти саноатни ривожлантиришнинг концептуал йўналишлари .....	109
<b>Oylola Ibrohimova.</b>	
Experimental works in the field of implementation of international English teaching and assessing programs into the education system of Uzbekistan .....	111
<b>Даврон Равшанов.</b>	
Улучшение результатов хирургического лечения парасагиттальных менингиом головного мозга .....	116
<b>Шахноза Сабирова.</b>	
Оценка эффективности педагога – форма профессионального развития .....	119
<b>Olim Alimnazarov.</b>	
Innovatsion ta’lim jarayonida o‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi .....	121
<b>Мушарраф Махмудова.</b>	
Ички ишлар вазирлиги академик лицей ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлик тўғрисидаги фаолияти .....	124
<b>Sevara Zaripova.</b>	
Innovatsion ta’lim sharoitida o‘quvchilarda radiant fikrlashni shakllantirish .....	127
<b>Лейло Аллаёрова.</b>	
«Мягкая сила» КНР .....	129
<b>Санобар Ашуррова, Хилола Юсупова.</b>	
Ўқитиши тамойиллари таълим жараёнида дидактик воситалар ва материаллардан фойдаланишнинг асоси сифатида .....	132
<b>Санобар Ашуррова, Комила Гуломова.</b>	
Профессионал таълимда бўлажак мутахассисларнинг медиасаводхонлигини ривожлантириш орқали мустақил фаолиятни ташкил этишда замонавий ёндашувлар .....	134
<b>Махмуд Мамарасулов.</b>	
Олий таълимни рақамлаштириш ва унинг истиқболлари .....	138
<b>Бахтиёр Қодиров.</b>	
Ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини блум таксономияси асосида ривожлантириш имкониятлари .....	141

Мазкур модел мақсад, буюртмачи, мұхандислар тайёрловчи таълим муассасалари, функцияси сифатида меъерий хужжатлар, таълим-тарбия жараёнини, машғулотларни ташкил этиш, амалиёт ва натижекомпонентлардан таркиб топган.

Мақсад компонентида рақобатбардош ва касбий маҳорати етук мұхандис тайёрлаш мақсад қилиб олган бўлса, мұхандислар тайёрловчи олий таълим муассасаларининг меъерий хужжатлар функциясида кадрлар буюртмачининг талабидан келиб чиқсан ҳолда, таълим йўналишининг малака талаблари, ўкув режалари

ва фан дастурларини ишлаб чиқиш жараёнини вазифа сифатида келтирган, машғулотларни ташкил этиш функциясида назарий, амалий ва тажриба дарсларига мавзунинг хусусиятидан келиб чиқсан ҳолда, педагогик-ахборот технологияларини қўллаб дарс сифатини таъминлаш кўзда тутилган, амалиёт функциясида ўкув режадан келиб чиқиб, ишлаб чиқариш корхоналарига малакавий амалиётга олиб чиқиш ва етакчи, тажрибали мутахассислар бириттирилса, натижада, касбий компетенцияси ривожланган, рақобатбардош мұхандис тайёрланади.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириши чора-таудибрлари тўғрисида” 20.04.2017 й., ПҚ-2909, Ўзбекистон Республикаси қонун хуёжшатлари тўплами, 2017 й., 18-сон, 313-модда, 19-сон, 335-модда, 24-сон, 490-модда.
2. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириши методикаси. Дис. ... н.ф.ф.д. (PhD) – Тошкент, 2020. – 141 б.
3. Талызина Н.Ф. Пути разработки профиля специалиста / Н.Ф.Талызина, Н.Г.Бенченюк, Л.Б.Хахловский. – Саратов: Изд-во Саратов. Ун-та, 1987. – 174 с.
4. Хайдарова О.К. Бўлажак касб таълим ўқитувчиларини таълим жараёнига технологик ёндашувга тайёрлаш: Дисс. ... пед. фан. номз. – Т.: 2005. – 143 б.



## **INNOVATSION MUHITDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI EKSPERIMENTAL FAOLIYATGA TAYYORLASH**

**Nodira Maripova,**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasи o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasi nazariy tahlil qilingan. Bo’lajak tarbiyachilarining innovatsion faoliyatga tayyorlash yuzasidan ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, faoliyat, sharoit, usullar, pedagogik faoliyat, innovatsion pedagogik usullar, islohotlar, tarbiyachi, komponent, neologiya, aksiologya , praksiologiya.

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается актуальность инновационной деятельности в интересах профессии будущих педагогов.

**Ключевые слова:** инновация, деятельность, условия, методы, педагогическая деятельность, инновационные педагогические методы, реформа, воспитатель, компонент.

### **Annotation**

This article provides for the relevance of innovative activity in the interest of future educators to the profession.

**Keywords:** innovation, activity, conditions, methods, pedagogical activity, innovative pedagogical methods, reform, educator, component.

Ma’lumki, bugungi kunda oliy ta’lim tizimida keng qamrovli innovatsion jarayonlar amalga oshmoqda. Mazkur jarayonlarning asosiy ishtirokchilari bo’lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilaridir. Shunday ekan, pedagogika

oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak mutaxassislarini yangicha fikrlovchi, didaktik jihatdan tayyor kadr sifatida tayyorlash talab etilmoqda. Innovatsiya haqida so’z yuritilar ekan, uning kelib chiqish tarixini eslash joizdir. Y.Shum-

peter tomonidan XIX asr boshlarida innovatsiya nazariyasini asosida yaratilgan. Bora-bora innovatsion texnologiyalar ta'lif jarayonini insonparvarlashtirish g'oyasi asosida kelib chiqqan. Insonparvarlashtirish g'oyasida ta'lif oluvchining o'z xohish-istagiga qarab, qiziqishlari qondiriladi. Ta'lif oluvchi shaxsi hurmat qilinadi, rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi, ta'lif-tarbiya jarayonining markazida ta'lif oluvchi shaxsi turadi. O'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lif vujudga kelib, insonparvarlashtirish pedagogikasi nomi bilan yuritila boshlandi. Uning bosh g'oyasi ta'lif oluvchi shaxsini himoya qilish, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ichki imkoniyatlarini ochish va rivojlanishi uchun ijodiy muhit yaratib beinish hisoblanadi. Insonparvarlik pedagogikasi innovatsion pedagogika sifatida ta'riflanadi.

Ta'lif jarayonining rivojlanishida innovatsion faoliyatga va qobiliyatga ega bo'lgan pedagoglar etakchi rol o'ynaydi. Pedagogning inovatsion faoliyati u ishlayotgan ta'lif muassasasining sharoitiga bog'liq, ammo, asosiysi, uning mazkur faoliyatga tayyorligidir. A.G.Asmolov fikriga ko'ra, innovatsion faoliyat doirasida olib boriluvchi eksperimentlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Yangi usulni sinab ko'rish.
2. Zamonaviy texnologiyani o'rganish va uning samaradorligini aniqlash.
3. Muayyan didaktik vositani sinash va maktabgacha yosh davriga mosligini aniqlash.
4. Ota-onalar bilan hamkorlik shakllari va samaradorligini aniqlash.
5. Bolalarda o'zlashtirish darajalarini qiyosiy o'rganish va tahlil qilish [2]

A.K.Mingbayeva va Z.M.Sadvaskovalar pedagogik innovatsiya yo'nalishlarini uchtaga ajratgan:

1. Pedagogik neologiya – ta'linda yangicha o'qitish tizimini yaratishni o'rganish.
2. Pedagogik aksiologya – yangi ijtimoiy pedagogik qadriyatlarni idrok qilishni o'rganish.
3. Pedagogik praksilogiya – pedagogik yangiliklarni qo'llash nazariyasi [5, 38].

Bugungi kunda zamonaviy pedagog uzlusiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrlashi vaziyatga ko'ra o'z kasbiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishi, shuningdek, boshqalarda ham ilg'or g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarur.

J.G.'Yo'ldoshev yangilikni o'quv jarayoniga olib kirish, uni qabul qilish besh bosqichda amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaydi:

- 1.Yangilik bilan tanishish, bilish, o'rganish.
  2. Yangilikka qiziqish, iloji boricha ko'proq yangiliklar to'g'risida ma'lumotlarni to'plash.
  3. Baholash.
  4. Aprobatsiyadan o'tkazish.
  5. Yangilikni qabul qilish[4, 4-6].
- S.T.Turg'unov va B.X.Daniyarov fikricha, "innovatsion

faoliyatning asosiy elementlari ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, uyg'unlashgan va boshqaruvchi fazalar hamda maqsadli, mazmunli, texnologik va natijaviy komponentlardan iborat. Innovatsion texnologiyalar shaxsda jamiyatdagi o'zgarishlarga tayyorgarlikni shakllantiradi, o'zgalar bilan hamkorlik qilish hamda ijodiy qobiliyat rivojlanadi". Innovatsion faoliyatda mavjud me'yorlar qolipdan chiqadi, yangicha shaxsiy-ijodiy qarashlar yuzaga keladi kasbiy faoliyatga individual ravishda yo'naltiriladi, ilg'or texnologiyalar amalga oshiriladi [6, 27-33].

Ta'linda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali bu soha asta-sekin yangi bosqichga o'tmoqda. Yani ta'limdi rivojlantirishning ikki yo'nalishi: umumiyligini konsepsiyanini ishlab chiqish, pedagogning innovation faoliyatini ommalashtirish va shu kabi loyihalarni amalga oshirishga tayyor mutaxassislarni tayyorlash zarur.

Ta'lif muassasasi pedagoglarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuuni ishlab chiqish;

- Nazariy-pedagogik qoidalar innovatsion faoliyatning asoslarini bilan belgilanishi;

- Innovatsion faoliyatning maqsadi, vazifasi, mazmuni hamda uni tashkil etish tamoyillarini o'z ichiga olishi [6].

Shuni ta'kidlash zarurki, innovatsiyalarni o'zlashtirishda muvaffaqiyat pedagog-tarbiyachi ularning potensial foyda va qiymatga ega ekanligiga ishonch hosil qilishidadir. Tayyorlikning ushbu tarkibiy qismini qadrli deb atash mumkin. Bu har qanday innovatsiyalarga o'tishning murakkabligini tasdiqlaydi, yangi ish tizimiga o'tish uchun eski tizimning inqirozini bir necha darajada – ta'lif maqsadlari, ta'lif mazmuni, uning usullari, shakllari va natijalari inqirozini tan olish kerak. Agar tarbiyachi-pedagogi hamma narsa qoniqtirsa: mashg'ulot jarayonida u o'z maqsadlariga erishadi, u ishning shakllari va usullariga qiziqadi, u bunday jarayonni udallaydi va nihoyat tarbiyachi erishgan natijadan mamnun bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarbiyachining professional tarzda rivojlanishiga yordam beradi, boshqa tomonidan, yangi yondashuv noto'g'ri qo'llanilganda tarbiyachilarining zaif natijalariga, shuningdek, bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatga qiziqish inqiroziga olib kelishi mumkin. Interaktiv texnologiyalar bo'lajak tarbiyachi innovatsion faoliyatining bir varianti sifatida o'quv jarayoniga xos bo'lgan rollarni o'zgartirishni nazarda tutadi. Tarbiyachi "menejer", maslahatchi yoki jarayon koordinatori, tarbiyalanuvchi – ob'ektlar emas, balki o'zaro ta'sir ob'yekti sifatida ishlaydi. Bunga rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, o'quv muhokamalari va ishbilarmonlik o'yinlari kiradi. Bunday faoliyatga e'tibor tarbiyachining nazorati ostida bo'lgan tarbiyalanuvchilarning jamoa ishiga qaratilgan. Ko'pincha kompyuter texnologiyalari bunday g'oyalarni

amalga oshirishga yordam beradi. Pedagogik amaliyotda yana bir keng tarqalgan usul – loyiham usulidir. “Loyiha” usuli amaliy muammolarni hal qilish uchun egallangan bilmlardan aniq maqsadlarda foydalanishni o‘z ichiga oladi.

“Loyiha” usulida tarbiyachi loyiha faoliyatining mutaxassisini va tashkilotchisi sifatida ishtirok etadi. Ushbu usul axborotni tahlil qilish va jamoada (jamoaviy loyiha) yoki mustaqil ravishda (individual loyiha) ishlashni o‘rgatadi.

Ta’lim jarayonida “Portfolio” usuli qo’llaniladi. “Portfolio” – talabalarning erishgan yutuqlari, ijtimoiy hayotda va ta’lim jarayonida orttirgan tajribalar to’plamidir. Ushbu usul insonning yutuqlariga qaratilgan va talabalarning shaxsiy yutuqlarini aniq ko’rsatib beradi. Bu usul turli talabalar uchun mos keladi. O’rtacha qobiliyatga ega bo’lganlar uchun portfolio o‘z bilimlariga bo’lgan ishonchni hosil qiladi va o‘qitishda qo’shimcha motivatsiya bo’ladi (agar u, haqiqatdan ham, munosib yutuqlarni o‘z ichiga olsa). Kuchli talabalar uchun portfolio bu – ular rivojlanishlarning qo’shimcha ko’rsatkichidir. Shunday qilib, yuqoridaq usullar innovatsion muhitda bo’lajak tarbiyachilarini eksperimental faoliyatga tayyorlashda o‘z samarasini beradi.

Ta’lim muassasasi pedagoglarini innovatsion faoliyatga jalb etuvchi omillar innovatsion faoliyatga ularni motivlashtirish (undash) vositalari sifatida xizmat qiladi. Pedagoglarning innovatsion faoliyatini tashkil etish ishlari asosiy maqsadga erishishga yo’naltirilgan bo’ladi va shu munosabat bilan ta’lim muassasasida asosiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarish zarur:

- uzlksiz ta’lim g’oyalarini amalga oshirishning dolzarb ehtiyojlarini ifodalovchi yangilangan texnologik va dasturiy-metodik mahsulotlarni yaratish;
- ko‘proq samarali hisoblangan o‘qitish vositalarini tanlash;
- ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini rivojlantirish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligiga asoslangan innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilmli va qobiliyatlari bitiruvchilar modelini amalga oshirishta asoslanish (ta’lim mazmunini yangilash).

O‘qituvchilarini kasbga yo’naltirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish (ta’lim dasturlarini yangilash), bunda innovatsion yondashuvlar quyidagilarni nazarida tutadi:

birinchidan, o‘quv darsliklarining mazmunini turli mafkuralardan tozalash, raqobatni vujudga keltiruvchi fikrlar bilan to’ldirish;

ikkinchidan, davlat ta’lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi rivojlantiruvchi ayrim o‘zgarishlarni kiritish;

uchinchidan, o‘quv rejasining fakultativ va ta’lim muassasasi ixtiyoridagi soatlar bloklariga yangi fanlarni kiritish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta’minlashning

asosiy shartlari alohida boshqaruv jihatlari, ya’ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo’naltirilgan, yangilangan boshqaruv strukturasini shakllantirish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish bosqichlari. Yangilanish yangi metod, texnologiya, dasturni yangilashni, innovatsiya – jarayonni bildiradi. Innovatsion jarayon quyidagicha tatbiq etish bosqichlariga ega:

- pedagogik yangilikning yaratilishi;
- yangilikni qabul qilish, o‘zlashtirishga intilish, baholash;
- yangilikni tatbiq etish, foydalanish uchun tahlil etish;
- maktab, tuman, shahar, regionlarda keng yoyish, tatbiq etish.

Bunda maqsadni aniqlash, vazifani belgilash, mazmunni aniqlash, tatbiq etish shaklini belgilash, uslubni tanlash, natija olish va tahvilay xulosa chiqarish ko‘zda tutiladi.

Yangilikni kiritishda qarshiliklarni engib o‘tish lozim bo’ladi. Yangilik psixologik jihatdan, sotsial-iqtisodiy, tas-hkiliy boshqaruv jihatidan to’siqliq uchrashi mumkin. Innovatsion jarayonni o‘qituvchi-novatorlar o‘quv jarayoniga olib kiradilar. Novatorlar o‘z oldiga o‘quv jarayoniga yangilikni olib kirish maqsadini qo‘yadilar.

Oliy ta’lim jarayonida bo’lajak tarbiyachilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash quyidagi kasbiy malakalarini shakllantiradi:

- o‘yindan o‘quv faoliyati sifatida foydalanish; rolli o‘yin va qo‘g‘irchoq teatrini sahnalashtirish;
- tasviriy san’at yordamida bolalarning xayol va tasavvurlarini rivojlantirish;
- oila bilan samarali hamkorlikda ishlash;
- bolalarning yutuqlarini rag‘batlantirib borish va motivatsiyani shakllantirish;
- ta’limiy amaliyotda innovatsion jarayonlarni tashkil eta olish.

Innovatsion faoliyat motivatsiyalari talabalarda bilishga va maktabgacha ta’lim sohasiga bo’lgan qiziqishni yanada oshiradi. Talabalarda bilishga bo’lgan qiziqishning oshishi uch xususiyat bilan bog‘liq: 1) bilish jarayoni; 2) hissiy bilish; 3) irodaviy sifatlar. Agarda hissiyot va iroda qiziqish bilan birga namoyon bo‘lsa, o‘quv faoliyatining eng kuchli turtkisi hisoblanadi. Motivatsiyaning rivojlanishi bilishga bo’lgan motiv hajmi bilan belgilanadi. Talabalarning o‘quv faoliyati motivatsiyasi quyidagilar bilan tavsiflanadi: o‘quv faoliyatiga diqqatni qarata olish, ya’ni faoliyat mazmunini anglash, maqsadga yo’naltirilgan o‘quv motivlari, maqsadga intilish-o‘quv harakatlarini bajarish, muvafqaqiyat va yutuqlarga erishishga harakat qilish, harakatlarning to‘g‘riligiga ishonish, olingan faoliyat natijalari va o‘z-o‘zini baholash jarayoni, faoliyatga hissiy munosabat bildirish. Ta’lim jarayonida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash o‘z mutaxassisligi bo‘yicha zaruriy bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi, ularda kasbiy o‘z-o‘zini tahlil qilish va shaxsiy sifatlarini anglashlariga imkoniyat yaratadi. Talabalarni pedagogik innovatsion faoliyatga tayyorlashda, asosan, kasbiga qilishga alohida boshqaruv jihatlari, ya’ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo’naltirilgan, yangilangan boshqaruv strukturasini shakllantirish hisoblanadi.

ziqish ehtiyojini oshirish lozim. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashni o'quv faoliyatini tahlil qilish va natijalarini muhokama qilish yordamida amalga oshirish muhim. Maktabgacha ta'lim yo'naliishi talabalarining ma'ruza, se-

minar va amaliy darslarida turli xil muammoli savollarni o'yinlar asosida amalga oshirish innovatsion jarayonlarning samarali kechishiga asos bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абобакирова О.Н. Современные проблемы инновационного подхода подготовки детей к школе//Молодой ученый. Москва, 2015-№3.
2. Асмолов А.Г. Инновационные образовательные программы по психологии. 2007. –267 с.
3. Ishmukamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: 2013. –123 b.
4. Yo'ldoshev J.F. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining II bosqichini amalga oshirish jarayonida pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida innovatsion uslublardan foydalananish muammolari. –T.: 2002. –247 b.
5. Мингбаева А.К., Садвасакова З.М. Инновационные методы обучения или как интересно преподавать. Учебное пособие. Алматы, 2012. –355 с.
6. Turg'unov S.T., Daniyarov B.X. va boshq. O'qituvchilarning kasbiy mahorati va komplitentligini rivojlantirish –T.: " Sano-standart", 2012. –172 b.



## **ЖАХОН МЕДИАЛАНДШАФТИДА МАТБУОТ ЭРКИНЛИГИ: ЗАМОНАВИЙ МЕЗОНЛАР ВА ПАРАДИГМАЛАР**

**Мукаррам Отамуродова,**  
ЎзЖОҚУ таянч докторанти

#### **Аннотация**

Мақолада жаҳон медмаландшафтидаги ўзгаришилар натижасида сўз ва матбуот эркинлигига нисбатан шакланаётган янги ёндашувлар тадқиқ қилинган. Шунингдек, “матбуот эркинлиги” ва “медиа эркинлиги” каби тушунчаларни қиёсий таҳлил қилиши орқали жамиятда сўз эркинлигининг замонавий мезонлари атрофича ўрганилган. Бу борада дунё олимларининг янги назариялари асосида халқаро ташкилотлар томонидан эълон қилинадиган сўз ва матбуот эркинлиги рейтингларининг методологиясига баҳо берилган.

**Калим сўйлар:** медиаландшафт, сўз эркинлиги, матбуот эркинлиги, плюрализм, демократия.

#### **Аннотация**

В статье рассматриваются новые подходы к свободе слова и печати, формирующиеся в результате изменений мирового медиаландшафта. Также детально исследуются современные показатели свободы слова в обществе посредством сравнительного анализа таких понятий, как «свобода печати» и «свобода СМИ». В связи с этим была произведена оценка методологии рейтингов свободы слова и прессы, оглашаемых международными организациями, на основе новых теорий мировых ученых.

**Ключевые слова:** медиаландшафт, свобода слова, свобода печати, плюрализм, демократия.

#### **Annotation**

The article aims to examine the new approaches to freedom of speech and the press that is being formed because of changes in the world's media landscape. Also, the modern indicators of freedom of speech in society are thoroughly studied through the comparative analysis of concepts such as «press freedom» and «media freedom». In this regard, the evaluation of the methodology of freedom of speech and press ratings announced by international organizations based on the new theories of world scientists was made.

**Keywords:** media landscape, freedom of speech, freedom of the press, pluralism, democracy.

Асрлар давомида ёзувчилар, файласуфлар ва яқин даврлардан бошлаб ҳукуқшунослар матбуот ва сўз эркинлигининг маърифатли жамият учун қай даражада долзарблигини ўз назариялари орқали исботлашга ҳаракат қилиб келмоқдалар. Қадимги юононларнинг

конструктив ёндашувидан Иммануил Кантнинг “сўз эркинлиги ўзини ўзи бошқаришга ёрдам берувчи хусусиятдир” деган қарашларигача ёки Жон Стюарт Милл матбуот эркинлигига ҳақиқатни излашнинг ягона йўли сифатида таъриф бергани, Оливер